Taraqqiyot spektri
ILMIY JURNALI
Vol 2 № 6 2026

Namangan viloyatida 2000–2016-yillarda madaniy turmush darajasi va urbanizatsiya jarayonlari

Alisherov Axmadali Adxamjon o'g'li
University of Business and Science Tarix mutaxasisligi bo'yicha 2-kurs magistranti
axmadillo698@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Namangan viloyatida 2000–2016-yillarda kechgan urbanizatsiya jarayonlari hamda ularning aholi madaniy turmush darajasiga ta'siri tarixiy va statistik manbalar asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida viloyatda aholi sonining o'sishi, shaharlar ulushining ortishi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi natijasida urbanizatsiya jarayonlarining jadallashgani aniqlangan. Shuningdek, madaniyat va istirohat bog'lari, madaniyat markazlari, kutubxonalar va boshqa madaniy muassasalar faoliyatidagi o'zgarishlar hamda ularning aholi madaniy ehtiyojlarini qondirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari urbanizatsiya jarayonlarining hudud ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganligini, shu bilan birga shahar va qishloq hududlari o'rtasidagi ayrim tafovutlar saqlanib qolayotganligini ko'rsatadi. Maqolada urbanizatsiya va madaniy taraqqiyotning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan hamda hududni barqaror rivojlantirish yuzasidan tegishli xulosalar va takliflar ilgari surilgan.

Abstract: This article analyzes the urbanization processes that took place in the Namangan region in 2000-2016 and their impact on the cultural standard of living of the population based on historical and statistical sources. During the study, it was revealed that urbanization processes have accelerated as a result of population growth, an increase in the share of cities, and the development of industry and services in the region. It also highlights changes in the activities of cultural and recreational parks, cultural centers, libraries, and other cultural institutions, as well as their role in satisfying the cultural needs of the population. The results of the study show that urbanization processes have had a positive

Taraqqiyot spektri

impact on the socio-cultural development of the region, while some differences between urban and rural areas remain. The article scientifically substantiates the interrelationship between urbanization and cultural development, and puts forward relevant conclusions and proposals for the sustainable development of the region.

Аннотация: В данной статье на основе историко-статистических источников анализируются процессы урбанизации, происходившие в Наманганской области в 2000-2016 годах, и их влияние на культурный уровень жизни населения. В ходе исследования выявлено ускорение процессов урбанизации в результате роста населения, увеличения доли городов и развития промышленности и сферы услуг в регионе. Также освещены изменения в деятельности культурно-рекреационных парков, культурных центров, библиотек и других учреждений культуры, а также их роль в удовлетворении культурных потребностей населения. Результаты исследования показывают, что процессы урбанизации оказали положительное влияние на социально-культурное развитие региона, хотя некоторые различия между городскими и сельскими районами сохраняются. В статье научно обосновывается взаимосвязь между урбанизацией и культурным развитием, а также предлагаются соответствующие выводы и рекомендации по устойчивому развитию региона.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, urbanizatsiya, madaniy turmush darajasi, shahar aholisi, demografik jarayonlar, madaniy infratuzilma, madaniyat va istirohat bog‘lari, hududiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, urban muhit.

Keywords: Namangan region, urbanization, cultural standard of living, urban population, demographic processes, cultural infrastructure, cultural and recreational parks, territorial development, social development, urban environment.

Ключевые слова: Наманганская область, урбанизация, культурный уровень жизни, городское население, демографические процессы, культурная инфраструктура, культурно-рекреационные парки, территориальное развитие, социальное развитие, городская среда.

Taraqqiyot spektri

KIRISH

XXI asr boshlaridan boshlab dunyo miqyosida urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo aholisining katta qismi shaharlarda istiqomat qilmoqda va ushbu ko‘rsatkich yildan-yilga ortib bormoqda. Urbanizatsiya nafaqat aholi joylashuvi va hududiy tarkibning o‘zgarishiga, balki iqtisodiyot, ijtimoiy infratuzilma, madaniyat hamda aholi turmush tarzining rivojlanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois urbanizatsiya jarayonlarini tarixiy va hududiy jihatdan tadqiq etish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar mamlakat hududlarining rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Ayniqsa, aholi sonining o‘sishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining kengayishi, transport-kommunikatsiya tizimlarining takomillashuvi urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuviga xizmat qildi. Mazkur jarayonlar respublikaning demografik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlaridan biri hisoblangan Namangan viloyatida ham yaqqol namoyon bo‘ldi.

Namangan viloyati Farg‘ona vodiysining yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, yuqori aholi zichligi, mehnat resurslarining ko‘pligi hamda tarixiy-madaniy an’analarning boyligi bilan ajralib turadi. 2000–2016-yillar davomida viloyatda urbanizatsiya sur’atlarining ortishi natijasida shaharlar infratuzilmasi kengaydi, yangi xizmat ko‘rsatish obyektlari tashkil etildi, madaniyat va istirohat bog‘lari, kutubxonalar hamda boshqa madaniy muassasalarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi. Bu esa aholining madaniy turmush darajasi va ma’naviy hayotida muhim o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayonlari bilan bog‘liq ayrim muammolar, jumladan, shahar va qishloq hududlari o‘rtasidagi ijtimoiy-madaniy tafovutlar, infratuzilmaga tushayotgan yuklamaning ortishi hamda aholi ehtiyojlarining o‘zgarishi kabi masalalar ham

Taraqqiyot spektri

vujudga keldi. Mazkur holatlar urbanizatsiya va madaniy rivojlanish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni chuqur o‘rganishni taqozo etadi.

Maqolaning maqsadi Namangan viloyatida 2000–2016-yillarda urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish, ularning aholi madaniy turmush darajasiga ta’sirini tarixiy manbalar va statistik ma’lumotlar asosida yoritish hamda hududning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotidagi o‘rnini ilmiy jihatdan baholashdan iborat.

ASOSIY QISM:

Bugungi globallashuv va modernizatsiya jarayonlari sharoitida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ayniqsa madaniy turmush darajasi va urbanizatsiya jarayonlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda shakllanmoqda. Bu jarayonlar nafaqat yirik metropoliten hududlarda, balki mintaqaviy markazlar, jumladan Namangan viloyati misolida ham yaqqol namoyon bo‘lmoqda. 2000–2016-yillar oralig‘i O‘zbekiston uchun bozor iqtisodiyotiga o‘tishning chuqurlashuvi, infratuzilma va ijtimoiy sohalarda tub islohotlar amalga oshirilgan davr sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur davrda viloyatda aholi sonining o‘sishi, ayniqsa shahar aholisining ortishi urbanizatsiya jarayonlarining jadallashganini ko‘rsatadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Namangan shahri aholisi 2000-yildagi 333 mingdan 2015-yilda 420 mingdan ortiq kishiga yetib, qariyb 26 foizga oshgan . Bu esa urbanizatsiya nafaqat demografik, balki iqtisodiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liq murakkab jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, viloyatda umumiy urban aholi sonining izchil o‘sishi ham kuzatilgan bo‘lib, bu hududning iqtisodiy faolligi va infratuzilmaviy rivojlanish darajasining oshganidan dalolat beradi .

Urbanizatsiya jarayonlari madaniy turmush darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, shaharlashuv jarayoni aholining ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohalariga bo‘lgan ehtiyojini oshiradi hamda bu sohalarning sifat jihatdan rivojlanishini rag‘batlantiradi. Namangan viloyati tarixan hunarmandchilik va savdo markazi sifatida shakllangan bo‘lib, bugungi kunda ham yengil sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi bilan ajralib turadi . Bu omillar madaniy turmush darajasining oshishiga zamin yaratadi.

Taraqqiyot spektri

Shu nuqtai nazardan, 2000–2016-yillarda Namangan viloyatida madaniy turmush darajasi va urbanizatsiya jarayonlarini kompleks o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Chunki mazkur davrda hududda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, urban infratuzilmaning kengayishi, aholining turmush tarzidagi transformatsiyalar va madaniy ehtiyojlarning ortishi zamonaviy urban rivojlanish modelini shakllantirishda muhim tajriba vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishganidan so‘ng mavjud osori-atiqalar, moddiy va ma`naviy boyliklar sanalgan me`moriy va arxeologik yodg‘orliklarni avaylab asrash haqida bir qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001 yil 30 avgustida qabul qilingan «Madaniy meros ob`ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida»gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 29 iyuldagi 269-sonli «Madaniy meros ob`ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida»gi qarorlari fikrimizning yaqqol dalilidir. Hozirgi kunda O‘zbekistonda 7 mingdan ortiq madaniy yodg‘orliklar jumladan, 2500 ta arxitektura yodg‘orliklari, 2700 dan ziyod arxeologiya va mingdan ortiq mahobatli san`at yodg‘orliklari davlat himoyasiga olingan bo‘lib, muqaddas ziyoratgohlar shular jumlasidandir[1].

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning Namangan shahriga tashriflari va undan so‘ng 2009-yil qabul qilingan 1170-sonli qarorlari asosida bog‘ davlat dasturiga kiritilib, 2009-yilda qayta loyixalashtirildi va o‘sha yilning oktabr oyida rekonstruktsiya ishlari boshlab yuborildi. Bog‘dagi 26 ta talabga javob bermaydigan xizmat ko‘rsatish obe’ktlari buzib tashlandi. Loyixa qiymati 4 mlrd. 800 mln so‘mdan, 3 mlrd 300 mln so‘mlik qurilish montaj va obodonchilik ishlari amalga oshirildi.

Bugun bog‘da 6 ta choyxona va oshxonalar, 9 ta muzqaymoq pavilonlari, shaxmat – shashka klubi, 27 ta zamonaviy attraktsionlar va boshqa ko‘plab ko‘ngilochar ob’ektlar xizmat qilmoqda. Bog‘ hududida 1 gektarlik 1,5 km irrigatsiya tarmoqlari, 1 ta zamonaviy

[1] Мансуров Р. Меъморий ёдгорликларни саклаш ва таъмирлаш // Мозийдан садо. – 2004. – №3. – Б. 4 . Арабско-руский словарь(составлен Х. Х. Барановим). – М.: Русскый язык, 1989. – С. 338.

favvora ishlab turibdi. Bog‘da ochiq Estrada maydoni, 400 tomoshabinga mo‘ljallangan amfiteatr bunyod etilgan. Hududda aholining madaniy dam olish uchun 175 ta o‘rindiqlar, 160 ta tungi yoritish chiroqlari o‘rnatilgan. Gavjum va sokin hududlar tashkil etilgan. Bog‘ moliyaviy jihatdan to‘la o‘z xarajatlarini qoplaydi. Birgina 2011-yilda 95007 mln.so‘m daromad rejalangan bo‘lib, 96000 mln so‘m qilib bajarildi. Shundan bog‘ balansidagi attraktsion va o‘yin qurilmalaridan 64 000 mln.so‘m, ijara va boshqa tushumlar xisobidan 32000 mln.so‘m daromad olindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-yanvardagi “2011-2015-yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi” ijrosini ta'minlash bo‘yicha Nazorat rejasi ijrosini ta'minlash maqsadida viloyat hokimligining 2011-yil 8-fevraldagi nazorat rejasi ishlab chiqilib tasdiqlangan hamda ijro uchun joylarga yetkazilgan. Jumladan, viloyatdagi madaniyat va istirohat bog‘larini kapital rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash hamda zamonaviy attraksionlar bilan jihozlash bo‘yicha shahar va tumanlar hokimliklari tomonidan manzilli hududiy dasturlar ishlab chiqilib tasdiqlangan. Qarorning 2-ilovasida belgilangan vazifalar bo‘yicha Namangan viloyatida jami 13 ta madaniyat va istirohat bog‘i 2011-2015-yillarda dasturga ko‘ra rekonstruksiya qilindi.

Jumladan, 2011-yilda Namangan shahar Z.M. Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog‘i, Namangan shahar “Kamolot” yoshlar bog‘i hamda Yangiqo‘rg‘on tumanidagi madaniyat va istirohat bog‘i kapital rekonstruksiya qilindi. 2012-yilda Mingbuloq tumani “Do‘stlik” bog‘i hamda Chortoq tumani Furqat nomidagi madaniyat va istiroat bog‘lari kapital rekonstruksiya qilish bo‘yicha dasturga kiritildi va amalga oshirildi.

2013-yilda Uychi tuman “Mustaqillik” bog‘i va Namangan tumani “Yettibuloq” nomli bog‘ dastur bo‘yicha rekonstruksiya qilindi. 2014-yilda To‘raqo‘rg‘on, Kosonsoy va Uchqo‘rg‘on tumanlaridagi madaniyat va istirohat bog‘larini dastur doirasida kapital rekonstruksiya qilindi.

Biz odamlarning ma'naviy tarbiyasini o‘ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko‘zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo‘llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz. Masalaning boshqa tomoni – ma'rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. Insonning to‘laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo‘lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o‘choqlarini ko‘paytirish, ularning sharoitini yaxshilashdir.

Yurtimizning Samarqand, Buxoro, Xorazm, Andijon, Namangan, Farg‘ona va boshqa hududlari qadimdan o‘zining ajoyib bog‘-rog‘lari va oromgohlari bilan mashhur bo‘lgan. Bog‘larning barpo etilishida yurtimizdagi tabiiy sharoit ham muhim o‘rin tutadi. Ya'ni, bahorning dastlabki kunlaridanoq ob-havoning isishi va to kech kuzgacha shunday holatning saqlanib qolishi aholining va xorijiy mehmonlarning tabiat bag‘rida yayrab hordiq chiqarishi uchun sharoit yaratilishini talab etgan. Yurtimiz bog‘larida xalq sayllari, ommaviy tomoshalar uyushtirilib, bu tadbirlar nomoddiy madaniy merosimizning ajoyib namunalari bo‘lgan dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, xalq o‘yinlari bilan boyitilgan, askiya kechalari, mushoiralar uyushtirilgan.

Hozirda esa bog‘lar umumxalq bayramlarini nishonlash maskanlaridan hisoblanadi. Har yili qabul qilingan davlat dasturida yurtimizning har bir tuman va shaharida kamida bittadan zamonaviy madaniyat va istirohat bog‘ining faoliyat yuritishiga erishish, ularning barchasini zamonaviy attraksionlar va o‘yin qurilmalari bilan jihozlash orqali aholi, ayniqsa, yoshlarning madaniy dam olishlari uchun sharoit yaratish, ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, bog‘larni zamonaviy talablarga javob beradigan, turli yosh va aholi guruhlarining dam olish maskaniga aylantirish asosiy maqsad etib belgilanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda madaniyat va istirohat bog‘larini zamonaviy attraksion va o‘yin qurilmalari bilan jihozlash, ularda zamonaviy ko‘ngilochar ob'ektlarni barpo etish qatorida istirohat bog‘lari bilan bog‘liq azaliy an'analarimizni ham saqlab qolish va ulardan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanishni tashkil etish ham zarur. Bu ishlarni amalga oshirish uchun:

– madaniyat va istirohat bog‘lari bilan bog‘liq huquqiy-normativ bazani takomillashtirish, bog‘lar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimini yaratish;

– madaniyat va istirohat bog‘larida kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlanishini maqsadli tashkil etish, u yerda ishlayotgan xodimlarning malakasini oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;

– madaniyat va istirohat bog‘larida o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar ko‘lamini oshirish, yangi shakl va uslubdagi madaniy va sport tadbirlarining o‘tkazilishiga erishish;

– madaniyat va istirohat bog‘larida aholining barcha qatlamlari uchun, ayniqsa, oilaviy dam olishga xizmat qiladigan sharoit yaratish, xususan:

– sokin hududda aholining tabiat qo‘ynida xotirjam dam olishini tashkil etish, bolalarda tabiatni asrash tuyg‘usini shakllantirish;

– bolalar maydonchalarida kichik yoshdagi bolalarning zavqli o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishiga sharoit yaratish, ko‘rgazma zallarida turli tasviriy san'at va hunarmandchilik mahsulotlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazish orqali yoshlarda estetik didni tarbiyalash;

– estrada maydonlari va amfiteatrlarda mumtoz, estrada, folklor yo‘nalishlaridagi konsert dasturlarining namoyishini tashkil etish, aholiga ko‘rsatiladigan servis xizmatining turlarini ko‘paytirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish zarur.

Ushbu vazifalarning to‘liq amalga oshirilishi uchun madaniyat va istirohat bog‘lari hududi va ularda joylashtiriladigan ob'ektlarga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va shu asosda uchta tipdagi madaniyat va istirohat bog‘larining namunaviy loyihasini ishlab chiqish, namunaviy loyihalarning joylardagi mavjud bog‘larni rekonstruksiya qilish loyihalariga moslashtirish lozim bo‘ladi.

Bugungi globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda O‘zbekiston Respublikasining sharqiy hududlaridan biri hisoblangan Namangan viloyatida urbanizatsiya jarayonlari o‘ziga xos ijtimoiy-demografik, iqtisodiy va tabiiy-geografik omillar ta’sirida shakllanib, hududiy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Mazkur viloyat Farg‘ona vodiysining muhim qismi sifatida yuqori aholi zichligi, mehnat

resurslarining ko‘pligi va demografik o‘sish sur’atlarining barqarorligi bilan ajralib turadi. Bu esa urbanizatsiya jarayonlarining intensivlashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

2000–2016-yillar davomida viloyatda sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi, xizmatlar sohasining diversifikatsiyalashuvi hamda transport-kommunikatsiya infratuzilmasining takomillashuvi urbanizatsiya darajasining bosqichma-bosqich oshishiga xizmat qildi. Natijada, shahar aholisi ulushining ortishi, yangi shaharcha va posyolkalar shakllanishi, qishloq hududlarining urbanistik transformatsiyasi kabi jarayonlar kuzatildi.

Shu bilan birga, aholining tabiiy o‘sishi va ichki migratsiya oqimlarining kuchayishi viloyatda urbanizatsiya jarayonlariga qo‘shimcha turtki bermoqda. Qishloq joylardan shahar markazlariga mehnat migratsiyasining ortishi, aholi bandligi tarkibining o‘zgarishi, xizmat ko‘rsatish sohasining kengayishi urbanizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini mustahkamladi. Biroq mazkur jarayonlar bilan bir qatorda, uy-joy ta’minoti, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga yuklamaning ortishi, ekologik muammolar va hududlararo ijtimoiy tafovutlarning kuchayishi kabi qator muammolar ham yuzaga kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Namangan viloyatida urbanizatsiya jarayonlarini kompleks tarzda, ya’ni ijtimoiy, iqtisodiy va hududiy omillar birligida o‘rganish, uning aholi turmush darajasiga ta’sirini ilmiy asosda tahlil qilish hamda istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini prognozlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mintaqa viloyatlari bo‘yicha 2010-yillardan boshlab Namangan viloyatida tug‘ilish koeffitsienti Andijon, Farg‘ona viloyatlari va o‘z navbatida respublika o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan yuqori bo‘lib kelmoqda. Shuning uchun so‘nggi yillarda mintaqa bo‘yicha Namangan viloyatida tug‘ilish koeffitsiyenti qo‘shni ikki viloyatga nisbatan yuqoriligicha saqlanib kelmoqda. Tug‘ilish dinamikasining tahlili, Farg‘ona mintaqasida unga xos darajaning asta-sekin o‘sib borayotganidan dalolat beradi. Bu jarayonni aholi va

Taraqqiyot spektri

mexnat resurslari soni va tarkibini bashorat qilishda, mintaqa iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanish istiqbollarini ishlab chiqishda xisobga olish muhim xisoblanadi[2].

Shahar aholisining o‘sish sur’atlari 2008-2015 yillar ichida Farg‘ona viloyatida yanada faol kechdi. Natijada bu viloyat shahar aholisi 827,2 ming kishidan 1965,9 ming kishiga yoki 2,4 barobarga o‘sishga erisha oldi. Xolbuki, bu davrda shahar aholisining o‘sishi Namangan viloyatida 806,3 ming kishidan 1618,8 ming kishiga etdi yoki davr oralig‘ida 2,0 marotaba, Andijon viloyatida esa 716,9 ming kishidan 1500,0 ming kishiga yoki 2,1 barobarga teng bo‘ldi.

Farg‘ona mintaqasida urbanizatsiya jarayoni rivojlangan deb xisoblash mumkin. Negaki, aholisining 57,4 foizi shaharlarda yashaydi. 2015- yil 1-yanvar ma’lumotlariga ko‘ra, mintaqada 5084,7 mingga yaqin aholi shaharlarda yashagan. Urbanizatsiya darajasiga ko‘ra mintaqa viloyatlari respublika ko‘rsatkichidan yuqorida turadi. Jumladan, bu ko‘rsatkich Namangan viloyatida 63,4 foiz, Farg‘ona viloyatida 57,0 foiz va Andijon viloyatida 52,5 foizni tashqil etadi[3].

1991–2016-yillar davomida Namangan viloyatida ijtimoiy-demografik jarayonlar va urbanizatsiya dinamikasi keskin o‘zgarishlar bilan kechdi. Mazkur davr O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki bosqichlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, iqtisodiy islohotlar, bozor munosabatlariga o‘tish va hududiy rivojlanish siyosati aholi joylashuvi hamda turmush tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Statistik ma’lumotlar tahlili viloyatda aholi sonining umumiy o‘sish tendensiyasini ko‘rsatadi. 2000-yillardan boshlab demografik jarayonlar barqarorlashib, tabiiy o‘sish hisobiga aholi soni sezilarli darajada ortdi. Shu bilan birga, aholi tarkibida hududiy (shahar va qishloq) nisbatlarning keskin o‘zgarishi kuzatildi. Xususan, shahar aholisi ulushi 2000-

[2] O‘zbekiston Respublikasi Statistika axborotnomasi. 2015. –B. 22.
[3] O‘zbekiston Respublikasi Statistika axborotnomasi. 2015. –B. 22.

Taraqqiyot spektri

yildagi 37 foizdan 2010-yillarga kelib 68 foizdan oshdi. Bu esa viloyatda urbanizatsiya jarayonlari tezlashganini va yangi urban makonlar shakllanganini anglatadi[4].

Urbanizatsiya dinamikasidagi bunday keskin o‘zgarishlar, bir tomondan, iqtisodiy omillar — sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi, infratuzilmaning kengayishi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, ma’muriy-hududiy o‘zgarishlar va aholi punktlarining maqomi o‘zgarishi bilan ham bog‘liqdir. Qishloq aholisining nisbiy kamayishi esa ichki migratsiya, ya’ni qishloqlardan shaharlarga ko‘chish jarayonlarining kuchayganini ko‘rsatadi.

Mazkur davrda yuz bergan urbanizatsiya jarayonlari viloyat aholisining madaniy turmush darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shahar infratuzilmasining rivojlanishi natijasida madaniyat muassasalari — kutubxonalar, madaniyat uylari, teatr va istirohat bog‘lari faoliyati kengaydi va modernizatsiya qilindi. Aholining ta’lim darajasi, axborotga kirish imkoniyati va madaniy xizmatlardan foydalanish ko‘lami ortdi. Bu esa madaniy turmush darajasining sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilganini anglatadi.

Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayonlari hududlararo tafovutlarni ham yuzaga keltirdi. Xususan, qishloq hududlarida madaniy infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmagani, zamonaviy xizmatlar va texnologiyalarning cheklanganligi madaniy turmush darajasida muayyan nomutanosibliklarni saqlab qoldi. Shahar va qishloq o‘rtasidagi bunday tafovutlar hududiy rivojlanish siyosatini yanada takomillashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 1991–2016-yillarda Namangan viloyatida urbanizatsiya jarayonlari tezlashuvi natijasida aholi joylashuvi, ijtimoiy infratuzilma va madaniy hayotda chuqur strukturaviy o‘zgarishlar yuz berdi. Natijada viloyat asta-sekin agrar yo‘nalishdan urbanlashgan hududga aylana boshladi. Bu jarayon madaniy turmush darajasining oshishiga xizmat qilgan bo‘lsa-da, hududiy tengsizlik muammolarini ham yuzaga chiqardi.

[4] Yusupov X. B. Namangan viloyati shaharlarining urbanizatsiya va shaharlar rivojlanishining ijtimoiy muammolari / “Geografiya fanining dolzarb masalalari: iqlim o‘zgarishi, hududiy rivojlanish va ta’limda innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2025. –B. 163.

Taraqqiyot spektri

Shu bois, kelgusida hududni barqaror rivojlantirishda urbanizatsiya jarayonlarini muvozanatli boshqarish, qishloq hududlarida madaniy infratuzilmani rivojlantirish va aholining barcha qatlamlari uchun teng madaniy imkoniyatlarni yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Namangan viloyatida urbanizatsiya jarayonlarining o‘zgarishi, avvalo, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar natijasidir. Mustaqillikning dastlabki yillarida sanoat, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida kuzatilgan vaqtinchalik tanazzul urban rivojlanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, sobiq ittifoq davrida faoliyat yuritgan ko‘plab sanoat korxonalarining to‘xtashi yoki qisqarishi shaharlardagi iqtisodiy faollikning pasayishiga olib keldi.

1990-yillarda mazkur jarayonlar natijasida shahar aholisi sonining qisqarishi kuzatildi. Ish o‘rinlarining kamayishi va iqtisodiy noaniqlik tufayli aholining bir qismi shaharlardan qishloq hududlariga ko‘chib o‘tdi. Bu holat ayrim hollarda suburbanizatsiya yoki deurbanizatsiya elementlari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, qishloq hududlarida yashash xarajatlarining nisbatan arzonligi ham migratsiya jarayonlariga ta’sir ko‘rsatgan muhim omillardan biri bo‘ldi.

Mazkur davrda shaharlarda turar-joy qurilishi sur’atlari ham sezilarli darajada pasaydi. Ayniqsa, kichik shaharlar va qishloq hududlarida yangi uy-joylar barpo etish hamda shahar infratuzilmasini kengaytirish jarayonlari sust kechdi. Natijada 2000-yilga qadar Namangan viloyati shahar aholisi sonida kamayish tendensiyasi kuzatildi[5].

Biroq, 2000-yillardan boshlab iqtisodiy barqarorlashuv, sanoat va xizmat ko‘rsatish sohalarining qayta tiklanishi natijasida urbanizatsiya jarayonlari yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda shahar aholisi soni izchil o‘sib bordi va urbanizatsiya darajasi sezilarli darajada

[5] Yusupov X. B. Namangan viloyati shaharlarining urbanizatsiya va shaharlar rivojlanishining ijtimoiy muammolari / “Geografiya fanining dolzarb masalalari: iqlim o‘zgarishi, hududiy rivojlanish va ta’limda innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2025. –B. 164.

Taraqqiyot spektri

oshdi. Aholining qishloqlardan shaharlarga ko‘chishi kuchayib, shaharlar iqtisodiy va ijtimoiy markaz sifatida rivojlana boshladi.

Shu bilan birga, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi bir qator ijtimoiy va infratuzilmaviy muammolarni ham yuzaga keltirdi. Xususan, shaharlarga ko‘chib kelayotgan aholi sonining tez ortishi mavjud infratuzilmaning yetarli darajada tayyor emasligini namoyon etdi. Uy-joy ta’minoti muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda, ya’ni rasmiy va sifatli turar-joylar hajmi aholining o‘sish sur’atlariga mos ravishda kengaymadi.

2014-yilga kelib vodiyda urbanizatsiya ko‘rsatkichi keskin tarzda o‘sdi. Xususan, Andijonda 52,7 foiz, Namanganda 63,9 foiz va Farg‘onada 57,2 foizga qadar ko‘tarildi. Vodiy viloyatlari bo‘yicha o‘rtacha 57,9 foizga teng bo‘ldi[20]. Urbanizatsiya darajasi bo‘yicha Qo‘rg‘ontepa tumani alohida ajralib turadi. Ushbu tumanda yirik sanoat korxonalarining bunyod etilishi (47,5 foiz) ni tashkil etadi. Shuningdek, Asaka (23,3 foiz) va Shahrixon (29,0 foiz) tumanlarida ham bu ko‘rsatkich nisbatan yuqori. Hozirgi zamon urbanizatsiyasining muhim shakli — shaharlar aglomeratsiyasi (Asaka, Andijon, Kuygan-yor va Poytug‘ shaharlari) shakllandi.

Xulosa:

Millatlararo munosabatlarda o‘ziga xos jarayonlar Farg‘ona vodiysi viloyatlarida o‘zbek xalqi vakillari son jihatidan ustunlikka ega bo‘lsa-da, vodiy azaldan respublikaning ko‘p millatli hududlaridan hisoblanadi. Bugungi kunda Andijon va Farg‘ona tuman va shaharlarida 102, Namangan viloyatida esa 50 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilmoqda. Barcha shahar va qishloq fuqarolar yig‘inlari o‘ramida ko‘p millatli mahallalar, yarmi o‘zbek va yarmi boshqa etnoslardan tashkil topgan oilalar mavjud[6].

Tadqiqot natijalari 2000–2016-yillar davomida Namangan viloyatida urbanizatsiya jarayonlari va madaniy turmush darajasi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘lganligini ko‘rsatdi. Mazkur davrda viloyatda aholi sonining muntazam o‘sishi, shahar aholisining ortishi, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishi urbanizatsiya

[6] Abduhalimov, A. A. O‘zbekiston qishloq aholisining ijtimoiy hayoti tarixidan (Farg‘ona vodiysining Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlari misolida, 1991–2020-yy.). Tarix fan. bo‘y. fal. dok (PhD) diss. –Farg‘ona. 2022. –B. 15-17.

Taraqqiyot spektri

jarayonlarining jadallashuviga xizmat qildi. Natijada shahar infratuzilmasi kengayib, aholining madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilandi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, urbanizatsiya jarayonlarining faollashuvi madaniyat va istirohat bog‘lari, madaniyat markazlari, kutubxonalar hamda boshqa madaniy muassasalar faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, 2011–2015-yillarda viloyatdagi madaniyat va istirohat bog‘larini rekonstruksiya qilish, ularni zamonaviy attraksionlar va xizmat ko‘rsatish obyektlari bilan jihozlash bo‘yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari aholining madaniy hordiq chiqarish imkoniyatlarini kengaytirib, yoshlar ma’naviy tarbiyasini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Shuningdek, tadqiqot davomida urbanizatsiya jarayonlarining ijobiy natijalari bilan bir qatorda ayrim muammolar ham mavjudligi aniqlandi. Jumladan, shaharlar aholisi sonining tez sur’atlarda ortishi uy-joy ta’minoti, muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasiga yuklamaning kuchayishi hamda shahar va qishloq hududlari o‘rtasidagi madaniy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha tafovutlarning saqlanib qolishiga sabab bo‘lgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Namangan viloyatida urbanizatsiya jarayonlarining madaniy turmush darajasiga ta’siri tarixiy manbalar, statistik ma’lumotlar va hududiy rivojlanish ko‘rsatkichlari asosida kompleks tahlil qilinganligida namoyon bo‘ladi.

Taraqqiyot spektri